

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11323098>

XORIJIY MANSABDOR SHAXSLARNING PORAXO‘RLIGIGA QARSHI KURASHISHNING XALQARO HUQUQIY ASOSLARI

Berdiyev Shuhrat Axror o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish

Akademiyasi magistratura tinglovchisi,

e-mail: berdiyevshuhrat63@gmail.com

***Annotatsiya.** Bugungi rivojlanib borayotgan dunyoda korrupsiyga o‘zini turli shakllari bilan jamiyatning rivojlanishiga to‘sqinlik qilib kelmoqda. Bozor iqtisodiyotning rivojlanishi, mamlakatlar tashqi savdo aloqalarining yaxshilanishi va xalqaro bozorda yirik korxonalarining vujudga kelishi bilan birga korrupsiyaviy jinoyatlarning bir shakli sifatida xorijiy mansabdor shaxslarning poraxo‘rlik jinoyatlarining ko‘lami ham kengayib bormoqda. Bu esa dunyo davlatlarini ushbu turdagi jinoyatlarni oldini olish va qarshi kurashish uchun o‘zaro hamkorlikni yaxshilashga va yagona amaliyotni joriy etishga undamoqda. Maqolada bugungi kunga qadar xorijiy mansabdor shaxslarning poraxo‘rlik jinoyatlarini oldi olish va qarshi kurashish uchun xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro standartlar, normalar va tavsiyalar ilmiy jihatdan qiyosiy huquqiy tahlil qilingan bo‘lib, ushbu yuzasidan mulohaza va xulosalar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** xorijiy mansabdor shaxs, poraxo‘rlik, korrupsiya, xalqaro normalar, tavsiyalar, xalqaro savdo aloqalari.*

***Аннотация.** В современном развивающемся мире коррупция сама по себе препятствует развитию общества в его различных формах. С развитием рыночной экономики, улучшением внешнеторговых связей стран и появлением на международном рынке крупных предприятий расширяются масштабы взяточничества иностранных должностных лиц как формы коррупционных преступлений. Это побуждает страны мира улучшать взаимодействие и внедрять единую практику для предотвращения и противодействия этим типам преступлений. В статье проведен научно-сравнительный правовой анализ международных стандартов, норм и рекомендаций, разработанных международными организациями по предупреждению и противодействию коррупционным преступлениям иностранных должностных лиц на сегодняшний день, даны суждения и выводы по этому поводу.*

***Ключевые слова:** иностранный чиновник, взяточничество, коррупция, международные нормы, рекомендации, международные торговые отношения.*

Abstract. *In today's developing world, corruption manifests itself in various forms and hinders the development of society. Along with the development of the market economy, the improvement of foreign trade relations of countries and the emergence of large enterprises in the international market, the scale of bribery of foreign officials as a form of corruption crimes is also expanding. This encourages the countries of the world to improve cooperation and introduce uniform practices to prevent and combat this type of crime. In the article, the international standards, norms and recommendations developed by international organizations to prevent and combat the crimes of bribery of foreign officials have been scientifically compared and legal analysis has been made.*

Key words: *foreign official, bribery, corruption, international norms, recommendations, international trade relations.*

Kirish

Korrupsiyaning har qanday ko‘rinishi jamiyat va davlat rivojlanishining asosiy to‘siqlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 12-dekabr kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida yuksak xalqaro mukofotni topshirish marosimidagi nutqida “Korrupsiya butun insoniyatga, barcha jamiyatlar asosiga, iqtisodiy taraqqiyotga zarba beradigan, qonun ustuvorligini buzadigan va xalqning davlat siyosatiga ishonchini keskin susaytiradigan, demokratik institutlar rivojiga to‘sqinlik qiladigan xatarli tahdiddir va u barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish borasidagi rejalarimizga ham jiddiy putur yetkazadi” deb ta’kidlab o‘tdilar.¹ Haqiqatdan ham davlarning iqtisodiy jihatdan taraqqiy topishi, bozor iqtisodiyotning rivojlanishi va mahalliy va dunyo bozorida sog‘lom raqobat muhiting ta’minlanishi dunyo davlatlaridagi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi qay daraja yo‘lga qo‘yilganligi bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, bugungi davrga kelib barcha davlatlari xalqaro bozorda, savda aloqalarida .xususan, xalqaro moliya-tijorat bitimlarini amalga oshirishda xorijiy mansabdor shaxlarga pora berishga qarshi kurashishning samarali mexanizmni yo‘lga qo‘yishning ahamiyatini tushunmoqda. Chunonchi, aynan shu turdagi jinoyatlarning oqabatlari sababli mamlakatlarning ichki iqtisodiyotiga, xalqaro maydondagi mavqeyiga katta ziyon yetmoqda va sog‘lom raqobatning buzlishiga sabab bo‘lmoqda . Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining statistik ma’lumotlariga ko‘ra 1999-2014-yillar oralig‘ida jami **427 nafar** xorijiy mansabdorlarning poraxo‘rligi jinoyatlari

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida yuksak xalqaro mukofotni topshirish marosimidagi nutqi. 2023
[Электрон манба]. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/6934>

sodir etilganligi aniqlangan¹. Shuningdek Jahon Bankining axborotiga ko‘ra dunyo bo‘yicha har yili 1 trillion AQSh dollaridan ortiq miqdordagi pullar aynan xorijiy mansabdor shaxslarning poraxo‘rlik jinoyatlari uchun sarflanishi ma‘lum qilingan.² Bugungi kundagi jahon xalqaro standartlari shuni ko‘rsatdigi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro huquqiy normalarini amalga oshirish – korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim tarkibiy qismi va samarali usuli hisoblanadi. Ba‘zi tahlillarga ko‘ra bugungi dunyo davlatlari xalqaro normalarini amalga oshirishdagi turfa xilliklar sabab huquqiy amaliyotni qo‘llashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.³ Bu esa ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashning samarasiz bo‘lib qolishiga sabab bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunga qadar xalqaro moliya-tijorat bitimlarida xorijiy mansabdor shaxslarning poraxo‘rlik jinoyatlarini huquqiy jihatdan tartibga solish va oldini olish uchun bir nechta xalqaro huquqiy hujjatlar ushlab chiqilgan bo‘lib, ushbu xalqaro hujjatlar orqali barcha davlatlar uchun yagona bo‘lgan xalqaro standartlarni belgilab berilgan. Bu esa ushbu turdagi jinoyatlarni tergov qilish va oldi olishda samarali vositalardan biri hisoblandi. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi va Yevroqa Kengashi, FATF kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan ushbu turdagi jinoyatlarni oldini olish va ularga qarshi samarali qarshi kurashish yuzasidan xalqaro huquqiy hujjatlar, tavsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, dunyo bozorida yetakchi kuchga ega bo‘lgan davlatlar tomonidan ushbu xalqaro normalar va tavsiyalarga amal qilinib kelmoqda. Masalan 2023 yil holatiga ko‘ra dunyo bozorida export hajmi eng yuqori bo‘lgan davlat – Xitoy, Amerika Qo‘shma Shtatlari va Germaniya davlatlarida xalqaro savdo aloqalarida xorijiy mansabdor shaxslarning korrupsiyaviy jinoyatlarini aniqlash va oldi olish uchun mexanizmlar ishlab chiqilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Material va metodlar

Xalqaro moliya-tijorat bitimlarida xorijiy mansabdor shaxslarning poraxo‘rlik jinoyatlarini oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro huquqiy hujjatlar ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolda bugungi kunda xorijiy mansabdor shaxslarning poraxo‘rlik jinoyatlarini huquqiy jihatdan tartibga soluvchi xalqaro huquqiy hujjatlar, ularning o‘ziga xos jihatlari, afzalliklari, shuningdek implementatsiya qilish bilan ba‘zi muammolar tadqiq

¹ OECD Foreign Bribery Report :AN ANALYSIS OF THE CRIME OF BRIBERY OF FOREIGN PUBLIC OFFICIALS, 2014 [Электрон манба]. URL: <https://www.oecd.org/corruption/oecd-foreign-bribery-report-9789264226616-en.htm>

² World Bank, 'Anti-Corruption' 2016 [Электрон манба]. URL: <https://www.transparency.org/en/press/world-bank-move-to-reduce-private-sector-bribery-welcomed-by-transparency-i>

³Филатова В. В. Международные стандарты по противодействию коррупции // Право и современные государства. 2015. № 3. С. 55-59.

qilindi. Shuningdek har bir xalqaro huquqiy hujjatning qoidalari batafsil tahlil qilinib, ularning mazmun mohiyati ochib berildi. Tadqiq etilayotgan mavzuni maqolada yoritishda davomida bir qancha nazariy metodlar, jumladan, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, induksiya va deduksiya, hamda statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va tahlili

Bugungi kunga qadar dunyo davlatlari tomonidan qabul qilingan xorijiy mansabdor shaxslarning poraxo'rlik jinoyatlarini huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan eng asosiy xalqaro huquqiy hujjatlar quyidagilardan iborat bo'lib, har biri hujjat o'zining talablari, qoidalari va ko'lami bilan bilan bir biridan farqlanadi.

1.BMTning “Korrupsiyaga qarshi Konvensiya”sida(Bosh Assambleya tomonida 2003 yil 31 oktabrda qabul qilingan). Ushbu Konvensiya korrupsiyaning tur xil shakllari bilan kurashishga va oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlarni belgilab beruvchi normalar mavjud. Xususan, xorijiy mansabdor shaxslarning poraxo'rlik jinoyatlariga qarshi kurashish va oldini olish bo'yicha ham xalqaro standartlar keltirib o'tilgan. Ushbu Konvensiyaga ko'ra “xorijiy ommaviy mansabdor shaxs” - xorijiy davlatning qonunchilik, ijroiya, ma'muriy yoki sud organida biron lavozimni egallab turgan har qanday tayinlanadigan yoki saylanadigan shaxs va xorijiy davlat uchun, shu jumladan ommaviy muassasa yoki ommaviy korxon uchun biron ommaviy vazifani bajaradigan shaxs, “ommaviy xalqaro tashkilotning mansabdor shaxsi” deganda esa xalqaro davlat xizmatchisi yoki bunday tashkilot tomonidan uning nomidan ish yuritish vakolati berilgan har qanday shaxs nazarda tutiladi.¹ Konvensiyasning 16-moddasida “xorijiy ommaviy mansabdor shaxslarga va ommaviy tashkilotlarning mansabdor shaxslariga pora berish” jinoyatining xususiyatlari va unga jinoiy javobgarlik belgilashning o'zi xos jihatlari keltirilgan. Unga ko'ra “1.Har bir ishtirokchi Davlat xorijiy ommaviy mansabdor shaxsga yoki ommaviy xalqaro tashkilotning mansabdor shaxsiga shaxsan yoki vositachilar orqali mansabdor shaxsning o'zi uchun yoxud boshqa jismoniy yoki yuridik shaxs uchun, ushbu mansabdor shaxsga xalqaro ishlarni yuritish yuzasidan tijorat yoki boshqa noqonuniy afzallikka ega bo'lish uchun o'z lavozim vazifalarini bajarish vaqtida biron harakatni amalga oshirishi yoki harakat qilmasligi maqsadida biron afzallikni va'da qilish, taklif etish yoki taqdim etish, qachonki ular atayin sodir etilganda, buni jinoiy javobgarlikka tortiladigan harakat sifatida e'tirof etish uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan qonuniy va boshqa choralarni ko'rishi;

2. Har bir ishtirokchi Davlat xorijiy ommaviy mansabdor shaxsga yoki ommaviy xalqaro tashkilotning mansabdor shaxsiga shaxsan yoki vositachilar orqali mansabdor

¹ Конвенция ООН против коррупции, 2003

shaxsning o‘zi uchun yoxud boshqa jismoniy yoki yuridik shaxs uchun, ushbu mansabdor shaxs tomonidan o‘z lavozim vazifalarini bajarish vaqtida biron harakatni amalga oshirishi yoki harakat qilmasligi maqsadida biron afzallikni talab qilish yoki qabul qilish, qachonki ular atayin sodir etilganda, buni jinoiy javobgarlikka tortiladigan harakat sifatida e’tirof etish uchun talab qilinishi mumkin bo‘lgan qonuniy va boshqa choralarni ko‘rish imkoniyatini ko‘rib chiqishi” belgilangan.¹

Ushbu normalardan shuni anglashimiz mumkinki, BTMning ushbu Konvensiyasi quyidagi bir qator masalalarni tartibga soluvchi dasturiy amallardan biri hisoblanadi:

1) Xorijiy davlat mansabdor shaxslari va ommaviy xalqaro tashkilotlarining mansabdor shaxslarga nisbatan aktiv poraxo‘rlik holatlarini jinoiy javobgarlikka tortish bilan bog‘liq majburiyatini belgilaydi;

2) Xorijiy davlat mansabdor shaxslarining passiv poraxo‘rliqi uchun jinoiy javobgarlik belgilash bilan bog‘liq tavsiylar beradi;

Yuqoridagi ikki xolatdan shuni anglashimiz mumkinki Konvensiyaning xorijiy mansabdor shaxslarning aktiv poraxo‘rliqi uchun jinoiy javobgarlik belgilash majburiy qilib belgilandan bo‘lsa, passiv poraxo‘rlik uchun jinoiy javobgarlik belgilash qoidasi tavsiyaviy xususiyatga ega ekanligi anglashiladi. Ya’ni Konvensiya uni qabul qilgan davlatlardan xorijiy mansabdor shaxslarga pora berganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilashni talab qilsa, xorijiy mansabdor shaxs pora talab qilganligi yoki taklif qilingan porani qabul qilganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilashni ishtirokchi davlatning o‘z imkoniyatiga havola qiladi.

2. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining “Xalqaro moliya-tijorat bitimlarini amalga oshirishda xorijiy mansabdor shaxslarga kurashish Konvensiyasi”. Ushbu Konvensiya 1997 yil 17-dekabr kuni 34 ta davlat ishtirokida imzolangan bo‘lib, 1999-yil 15-fevral sanasidan kuchga kirishligi belgilangan. Bugungi kunga kelib jami 48 ta davlat ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan bo‘lib, shulardan 8 tasi (Argentina, Braziliya, Bulgariya, Xarvatiya, Peru, Ruminya, Rossiya va Janubiy Afrika) Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a’zo bo‘lmagan davlatlar hisoblanadi. Ushbu Konvensiya aynan maxsus xorijiy mansabdor shaxslarning poraxo‘rlik jinoyatlarini tartibga solish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, jami 17 ta moddadan iborat. Konvensiyaning bugungi kundagi ahamiyati juda yuqori bo‘lib, ko‘plab olimlar o‘z maqolalarida va ilmiy tadqiqotlarida bu haqida o‘z fikrlarini berib borishgan. Xususan, Anna Karishkinaning fikricha “ IHTTning hujjatlari, xususan, “Xalqaro moliya-tijorat bitimlarida xorijiy mansabdor shaxslarga pora berishga qarshi kurashish Konvensiyasi” xalqaro korrupsiyaga qarshi standartlar

¹ Конвенция ООН против коррупции, 2003 [Электрон манба]. URL: <https://lex.uz/acts/-1461329>

orasida muhim ahamiyat kasb etadi.”¹ Bundan tashqari tadqiqotchi Cepoyc A.B. ham o‘z ilmiy tadqiqotlarida ushbu Konvensiyaning bugungi kundagi ahamiyati haqida so‘z yuritadi.² Konvensiya boshqa xalqaro korrupsiyaga qarshi xalqaro huquqiy hujjatlardan farqli ravishda faqat “aktiv poraxo‘rlik “ holatlarini huquqiy jihatdan tartibga soladi. Konvensiyaning 1-moddalari qoidalariga ko‘ra har bir ishtirokchi davlat o‘z ichki qonunchiligidan kelib chiqqan holda xorijiy mansabdor shaxslarga pora berganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilash talabini qo‘yadi.³ Shuningdek Konvensiyada pora “taklif qilish” va “va’da berganlik” uchun ham javobgarlik belgilash kerakligi belgilangan. Konvensiyani qabul qilgan xorijiy davlatlarlar, xususan, Fransiya, Latviya, Litva, Rossiya davlatlari tajribasi o‘rganilganda ushbu davlatlarda xorijiy mansabdor shaxslarning poraxo‘rligi uchun jinoiy javobgarlik belgilanganligi o‘rganildi. Shuningdek, Rossiya Federatsiyasidan boshqa yuqori ko‘rsatilgan davlatlarda pora taklif qilganlik va va’da berish harakatlari ham jinoyat sifatida belgilangan. Shuningdek Konvensiyaning sharhida, ishtirokchi tomonlarning huquq tizimida yuridik shaxslarga nisbatan jinoiy javobgarlik qo‘llanilmasa, tomonlardan bunday jinoiy javobgarlik belgilash talab etilmasligi belgilab belgilangan⁴. “Yuridik shaxslarning javobgarligi” tushunchasi barcha korrupsiyaga qarshi xalqaro standartlarni belgilab bergan konvensiyalarda joy olgan bo‘lib, xususan BMT ning “Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi”ning 26-moddasida yuridik shaxslarning javobgarlik masalasi belgilab berilgan⁵. Bundan tashqari Yevropa Kengashining “Korrupsiyaga uchun jinoiy javobgarlik Konvensiyasi” ning 18-moddasida ham yuridik shaxslarning javobgarligi belgilangan. Ushbu xalqaro sharnomalar yuridik shaxslarning javobgarlik masalasi muhim ekanligini ko‘rsatadi. Konvensiya yuqoridagi xalqaro hujjatlardan farqli ravishda ishtirokchi davlatlar huquqiy tizimiga ko‘ra xorijiy mansabdor shaxslarga pora berganlik uchun yuridik shaxslarga nisbatan jinoiy javobgarlik qo‘llash mumkin bo‘lmasa, ularga nisbatan moliyaviy jazolar qo‘llash mumkin ekanligi belgilaydi. Bundan tashqari Konvensiyada yurisdiksiyani belgilashda ikki xil usuldan (hududiylik va fuqarolik) foydalanish mumkinligi ham ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, bu ishtirokchi davlatlarga jinoyatlarga tez va samaralari kurashish imkonini beradi. Konvensiyada xorijiy mansabdor shaxslarning poraxo‘rlik jinoyatlarda pul yuvish holatlari, soliq va moliyaviy hisobotlar tizimi tartibga solish,

¹ Каширкина А. А. Антикоррупционные стандарты ОЭСР: понятие и направления имплементации // Журнал российского права. 2013. С. 76-88.

² Сероус А.В.” Уголовная ответственность за подкуп иностранных должностных лиц и должностных лиц публичных международных организаций” // ДИССЕРТАЦИЯ на соискание ученой степени кандидата юридических наук. 2019. С. 22-23

³ OECD Anti-bribery Convention, Article 1. 1997

⁴ Commentaries on the Convention on Combating Bribery of Foreign Public Officials in International Business Transactions

⁵ UNCAC

ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish uchun o‘zaro huquqiy yordam masalari ham belgilab berilgan.

3. Yevropa Ittifoqining “Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risidagi Konvensiyasi”. Ushbu xalqaro hujjat ham xorijiy mansabdor shaxslarning poraxo‘rlik jinoyatlarini oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan qoidalarni o‘z ichiga olgan xalqaro huquqiy shartnomalardan biri hisoblanadi. Konvensiyaning 5-moddasiga ko‘ra “ Har bir tomon boshqa davlatning mansabdor shaxslariga nisbatan ushbu Konvensiyaning 2 va 3-moddalarida ko‘rsatilgan harakatlarni sodir etganlik uchun o‘z ichki qonunchiligiga muvofiq jinoiy huquqbuzarlik deb topish uchun zarur bo‘lgan barcha qonuniy choralarni ko‘radi.”¹ Konvensiyaning ushbu moddasi Yevroqa Ittifoqi 1997-yildagi Konvensiyasidan farqli ravishda har qanday xorijiy davlatlar mansabdor shaxslarining poraxo‘rlik holatlarini kriminalizatsiya qilgan. Shuningdek, bu Konvensiya Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining poraxo‘rlikka qarshi Konvensiyasidan ikki jihati bilan farqlanadi. Birinchidan, ushbu Konvensiya faol va nafaol poraxo‘rlik holatlarini ham huquqiy jihatdan tartinga solishi bo‘lsa, ikkinchidan Konvensiyaning 5-moddasida xorijiy davlat mansabdor shaxsining poraxo‘rligi bilan bog‘liq cheklovlar uchramaydi. Bundan tashqari Konvensiyaning 6-moddasida (Chet el davlat kengashlari a‘zolariga pora berish) “ Har bir tomon har qanday boshqa davlatda qonun chiqaruvchi yoki ma‘muriy vakolatni amalga oshiradigan har qanday davlat kengashi a‘zosi bo‘lgan har qanday shaxsga nisbatan Konvensiyaning 2 va 3-moddalarida nazarda tutilgan harakatni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortish uchun zarur bo‘lgan qonuniy va boshqa choralarni ko‘radi.”² deb belgilangan. Ushbu modda orqali xorijiy davlat kengashi a‘zolarining faol va nafaol poraxo‘rlik holatlarini jinoiy javobgarlikka tortish zarur ekanligi belgilab berilgan. Shuningdek 9-moddaga ko‘ra “ Har bir tomon xodimlar to‘g‘risidagi nizomga asosan har qanday mansabdor shaxs yoki xalqaro yoki millatlararo davlat tashkilotning shartnoma asosidagi ishchisi yoki tomonlarning ushbu vakolatlarni bajaradigan mansabdor shaxlari yoki agentlari tomonidan amalga oshirilgan Konvensiyaning 2 va 3-moddasida ko‘rsatilgan harakatni o‘z ichki qonunchiligiga muvofiq jinoiy huquqbuzarlik deb topish uchun zarur bo‘lgan choralarni ko‘radi.”³ Ushbu moddaning Konvensiyaning 5 va 6-moddalarida asosiy farqi shundan iboratki, unda subyekt sifatida “xodimlar to‘g‘risidagi nizomga asosan har qanday mansabdor shaxs yoki xalqaro yoki millatlararo davlat tashkilotning shartnoma asosidagi ishchisi yoki tomonlarning ushbu vakolatlarni bajaradigan mansabdor shaxlari yoki agentlari” nazarda tutilgan. Ushbu Konvensiyada keltirilgan moddalarning mazmunidan shuni

¹ Criminal Law Convention on Corruption, Article 5 ,Strasbourg, 27.01.1999 (<https://rm.coe.int/168007f3f5>)

² Criminal Law Convention on Corruption, Article 6

³ Article 9

anglash mumkinki, Konvensiyaning “xorijiy davlat mansabdor shaxlari va xalqaro davlat tashkiloti mansabdor shaxslarining poraxo‘rligi”ga qarshi kurashishning xalqaro standartlarini mustahkamlashdagi ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Konvensiya xorijiy davlat mansabdor shaxslari va xalqaro davlat tashkiloti mansabdor shaxslariga pora berish bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi harakatlar doirasini belgilaydi:

- a) xorijiy davlat amaldorlariga pora berish;
- b) xorijiy davlat kengashlari a‘zolariga pora berish;
- v) xalqaro tashkilotlar mansabdor shaxslariga pora berish;
- d) xalqaro parlament assambleyalari a‘zolariga pora berish.
- e) sudyalari va xalqaro sudlar mansabdor shaxslariga pora berish.

2. “Xorijiy davlat mansabdor shaxslari va xalqaro davlat tashkilot mansabdor shaxslarining” faol va nafaol poraxo‘rligi uchun javobgarlik masalalari.

3. Ushbu Konvensiya uni ratifikatsiya qilgan har bir davlatning milliy jinoyat qonunchiligi doirasida ko‘rib chiqilayotgan qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik belgilash majburiyatini belgilaydi. Bundan tashqari, Konvensiya javobgarlikni belgilash majburiyatidan tashqari, ko‘rib chiqilayotgan harakatlar uchun yuridik javobgarlik masalalarini ham belgilaydi.

Xulosalar.

Xulosa sifatida shuni ta‘kidlash mumkinki, bugungi kunda yuqorida tadqiq etilgan xalqaro shartnomalarning har biri xorijiy mansabdor shaxslarning poraxo‘rlik jinoyatlarini oldini olish va qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, umumiy va farqli jihatlari bor ekanligi bilan izohlanadi. Yuqoridagi ma‘lumotlardan shuni anglash mumkinki IHTTning “Xalqaro moliya-tijorat bitimlarini amalga oshirishda xorijiy mansabdor shaxslarga kurashish Konvensiyasi” boshqa Konvensiyalardan quyidagi asosiy jihatlari bilan ajralib turadi:

- faqat xorijiy mansabdor shaxslarning aktiv poraxo‘rligi uchun jinoiy javobgarlik belgilash majburiyati mavjudligi;
- yuridik shaxslarning ushbu turdagi jinoyatni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilashning ixtiyoriyligi;
- Konvensiya qoidalarini joriy qilishda har bir davlat milliy qonunchiligidan kelib chiqish imkoniyati;
- majburiy va tavsiyaviy karakterga ega bo‘lgan qoidlarning mavjudligi;
- Konvensiyaning tor doirani qamrab olganligi va hajman kichikligi.

Ushbu jihatlari Konvensiyani qabul qilgan davlatga uni qoidalarini tez va samarali o‘z qonunchiligiga joriy qilish imkoni beradi. Shu sababdan ham ushbu Konvensiyani xorijiy mansabdor shaxslarning poraxo‘rlik jinoyatlariga qarshi kurashish uchun mo‘ljallangan xalqaro huquqiy hujjat hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. OECD Foreign Bribery Report :AN ANALYSIS OF THE CRIME OF BRIBERY OF FOREIGN PUBLIC OFFICIALS, 2014
URL: <https://www.oecd.org/corruption/oecd-foreign-bribery-report-9789264226616-en.htm>
2. World Bank, ‘Anti-Corruption’ 2016
URL: <https://www.transparency.org/en/press/world-bank-move-to-reduce-private-sector-bribery-welcomed-by-transparency-i>
3. Филатова В. В. Международные стандарты по противодействию коррупции // Право и современные государства. 2015. № 3. С. 55-59.
4. Конвенция ООН против коррупции, 2003
5. Каширкина А. А. Антикоррупционные стандарты ОЭСР: понятие и направления имплементации // Журнал российского права. 2013. С. 76-88.
6. Сероус А.В.” Уголовная ответственность за подкуп иностранных должностных лиц и должностных лиц публичных международных организаций” // ДИССЕРТАЦИЯ на соискание ученой степени кандидата юридических наук. 2019. С. 22-23
7. OECD Anti-bribery Convention, Article 1. 1997
8. Commentaries on the Convention on Combating Bribery of Foreign Public Officials in International Business Transactions
9. UNCAC. 2003
10. Criminal Law Convention on Corruption, Article 5 ,Strasbourg, 27.01.1999 (<https://rm.coe.int/168007f3f5>)